

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI**

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ И КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕРЕВОДЧИКОВ**

**A MODEL FOR DEVELOPING LINGUISTIC CULTURAL AND COMMUNICATIVE
COMPETENCE OF FUTURE TRANSLATORS**

Abduraximova Umida Shuxratovna
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli, tashkil etish bosqichlari va uni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ishlab chiqilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется и разрабатывается модель развития лингвокультурной и коммуникативной компетентности будущих переводчиков, этапы ее организации и возможности ее реализации.

Abstract

This article analyzes and develops a model for the development of linguistic, cultural and communicative competence of future translators, the stages of its organization and the possibilities of its implementation.

Kalit so'zlar: pedagog, lingvomadaniy, kommunikativ, tizim, takomillashtirish, kompetensiya, madaniyat, lingvomadaniyat, pedagogika.

Ключевые слова: педагог, лингвистический, коммуникативный, система, совершенствование, компетентность, культура, лингвокультура, педагогика.

Key words: pedagogy, linguistic, communicative, system, improvement, competence, culture, linguistic culture, pedagogy.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentlik, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoly-madaniy faoliyat darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantirilishini tahlil qildik. Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq pedagogning kommunikativ kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lrim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'chanadi.

Bo'lajak tarjimonning kasbiy muloqoti - nafaqat ikki tilga egasi, balki bir vaqtida ikki madaniy makonda bo'luchchi, dunyoni bir vaqtida ikki har xil nuqtai nazardan idrok qilishga qodir shaxs sifatida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab G'arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda. Milliylik, lisoniy adekvatlik, lingvomadaniy va kommunikativlik masalalari Sh.Abdullayev, I.Vladimirova, M.Javbo'riyev, Sh.Ivakova, N.Isamuxamedova, G.Salomov, I.Komilov, S.Mirzaqulov, I.G'afurov, N.O'rmonova, Z.Sodikov, R.Shirinova, Z.Isomiddinov, E.Ochilov, Z.Xudoyberganova, D.Ashurova, G.Ergasheva, H.Mustafayeva, T.Madraximov tadqiqot ishlarini olib borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazkur jarayonning majmuaviyligi interlingvomadaniy kommunikatsiya jarayoni sifatida samarali ishlaydigan tizimni ko'rishni ta'minladi. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ

PEDAGOGIKA

kompetentligini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asosi sifatida lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi tanlandi. Lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi - til va madaniyat birligidan iborat bo'lib, til, nutq orqali madaniyatni ifodalashni o'zida jamlaydi.

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi lingvomadaniyatlararo yondashuv asosida chet tillarga o'qitish jarayonini kommunikativ yo'naltirilganligi ta'minlash, talabalarni motivatsiyasini faollashtirish asosida lingvomulokot kompetentligini rivojlantirish jarayonini mustaqil ta'lim rejimiga integratsiyasini amalga oshirish, bu kasbiy muloqot kompetentlikni shakllantirish uslubiy-texnologik vosita sifatida interfaol o'kitishdan foydalanish kabi pedagogik shartlar majmuasini belgilandi. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni kommunikativ yo'naltirilgan tizimi motivatsiya-maqsadli, tarkibiy-texnologik; baholovchi-xulosaviy tuzilmaviy komponentlarni kamrab olingan.

Motivatsiya-maqsadli muloqot kompetentligini shakllantirish maqsadni dekompozitsiya kilish, ehtiyoj-motivatsiya sohaga muvofiq ijodiy salohiyatini ochib berish, qadriyatli yo'naltirish funksiyalarini bajaradi. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-texnologik komponent o'qitish, tarbiyaviy, loyihibaviy, tashkiliy vazifalarni amalga oshirishni qamrab oladi. Shakllanayotgan kompetentlikning xususiyatlariga muvofiq ushbu komponent tayyorlashning uch blokini kamrab oladi: leksik va grammatic, ijtimoiy va madaniy layoqati, nutqiy-madaniy laskat. Leksik va grammatic layoqat ikkinchi tilning tovush tizimi, so'z boyligi, so'z birikmasi va gaplarni tuzilishi, gap, matn tarkibi va qurilishi, til uslublariga oid bilim, malaka o'zlashtirish va amalda qo'llashni ko'zda tutadi. Bo'lajak tarjimonlarning leksik va grammatic layoqatining o'ziga xos xususiyatini til tizimlarining lingvoetnik farqlari, manba va tarjima qilinayotgan tillarning meyorlari hamda natijada bular bilan tarjima transformatsiyalari va qoidalari qo'llash to'g'risidagi bilimlar tashkil etadi. Tarjimonning ijtimoiy va madaniy layoqati o'rganayotgan til mamlakatining tarixi, xalqining madaniy va milliy mentaliteti va dunyoqarashi, geografik joylashuvi, iqlimiga doir bilim, malaka o'zlashtirish va amalda qo'llashni nazarda tutadi. Nutqiy-madaniy tayyorgarlik talabalar tomonidan chet tili madaniyatida qabul qilingan kommunikativ texnikani o'zlashtirishga, bilim va uning o'z madaniyatida qabul qilingan farqlarni o'zlashtirishga, inferensiya qobiliyatini rivojlantirishga hamda tarjima muammolarini hal qilish uchun ma'lumotlarni izlash, qayta ishslash va qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Baholovchi-samarali komponent o'qituvchi va talabalar o'tasida teskari aloqa o'rnatilishini, bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligi to'g'risida, talabalarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyingchiliklari va yutuqlari to'g'risida ma'lumotni o'z vaqtida olishni, qobiliyatlar va ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar rivojlantirishni ta'minlaydi.

Teskari aloqa kanali o'qituvchi uchun muhimdir, chunki u bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashxislash, uning natijalarini baholash, o'z harakatlarini korreksiyalash, avvalgi bosqichlarda erishilgan natijalar asosida keyingi bosqichni qurish, talabalarning individual ko'tarilishi va rivojlanishini hisobga olgan holda usul va vazifalarni tabaqlashtirish imkoniyatini beradi.

Baholovchi-samarali komponent qator funksiyalarni bajarish; axborot (talabalarda lingvokommunikativ kompetentlikni shakllantirish darajasi to'g'risida ma'lumot berish), prognostik (lingvokommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar o'tasidagi aloqalarni o'rnatish), tahliliy (qiyingchiliklarni aniqlash, lingvistik, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ tayyorgarlikni takomillashtirish yullarini aniqlash), nazorat qilish (talabalarning tarjima faoliyatiga tayyorgarlik holatini maqsadda belgilangan mos yozuvlar talablari bilan taqqoslash), rag'batlantiruvchi (talabada o'z kuchlariga bo'lgan ishonchini shakllantirish, uning tarjima faoliyatiga tillararo madaniy muloqot sifatida faolligi va mustaqilligi, qiziqishini uyg'otish), refleksiv (o'quv jarayonida talabalarning subyektiv pozitsiyasini ta'minlash, tarjima faoliyati buyicha o'z tajribalarini tushunib yetish istagi).

Tizimning ushbu komponentini amalga oshirish usullari sifatida baholash, o'z-o'zini baholash, sinov, ekspert baholash namoyon bo'ladi. Aniqlangan tuzilmaviy komponentlar chambarchas o'zaro harakatda bo'lib, bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun kommunikatsiya yo'naltirilgan tizimni shakllantiradi, bu talabalarning ikkinchi til xususiyatlarini rivojlantirishga e'tibor berish, lingvomadaniyatlar dialogiga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi hamda funksional yondashuv, interpretiv yondashuv, dinamizm va

optimallashtirish, qiyosiy-diaxron yondashuv, muloqot va madaniyatlararo aloqa birligi tamoyillarga asoslangan model yaratilgan.

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning mezonlari, mazmuni, tarkibi, yo'nalishlari, natijalari va pedagogik shart-sharoitlari belgilab olindi. Jumladan, tadqiqot modelimizda quyidagi mezonlarni belgilab oldik:

Motivatsion mezon – bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ehtiyojarini qondirishni anglatadi;

Operatsion-kognitiv mezon – ta'lif va tarbiya sifatini ta'minlash muammolarini tahlil qilish, kasbiy tezaurusni shakkantirish, verbal va noverbal xulq-atvorda zarur ifoda vositalarini o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy vazifalarni (kasbiy muloqot, metodik kengash va seminarlar, konferensiyalarda, ochiq ma'ruba va seminarlarda ishtirok etish) samarali bajarish uchun zarur malakalarini egallash, o'zgaruvchan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi;

Refleksiv mezon – ta'lif sifatiga erishish muhim shartlaridan biri sifatida ta'lif oluvchilar tomonidan o'z individual ta'lif jarayonini baholay olishi; bo'lajak o'qituvchining emotsiyon-qadriyatli ustyanovkalari, uning o'zini o'zi bilish va o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, dunyoda o'z o'rni va rolini aniqlash qobiliyatini anglatadi.

Ingliz tili darslarida lingvistik materiallar ustida ishlash jarayonida lingvomadaniy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Lingvistik matn bilan ishlashning quyidagi usullari natijador ekanligini ko'rsatdi:

- o'qish va tahlil;

- bosh g'oya, asosiy holat va tushunchalarni ajratib ko'rsatish va ko'chirma olish;

- izohlab o'qish;

- matnni jamoaviy tahlil qilish;

- matnga savollar shakkantirish;

- o'rganilayotgan jamoaviy hodisani aniqlashtirish maqsadida aniq, faktik va nazariy materiallarni umumlashtirish;

- bir xil faktlar, hodisalar, g'oyalarni tizimga solish;

- kontrast hodisalarning qarama-qarshiligini aniqlash hamda global, tarixiy-madaniy, ijtimoiy xarakterdagilarni baholash;

- jamoaviy-tarixiy rivojlanishning turli yondashuvlarini aniqlash;

- bir necha manbalarni solishtirib, muammo yechimining turli yo'llarini topish;

- hukmning mantiqiy zanjirini sabab-oqibat aloqalarida aniqlash;

- matn, solishtiruv-umumlashtiruvchi, konkret hamda mantiqiy matn, jadvallar, rejalar (kengaytirilgan, tizimli-mantiqiy va tematik), tezislар tuzish;

- o'z nuqtai nazari va umumlashgan xulosalarini tayyorlash.

Bu faoliyatda o'qituvchining yordami kerak bo'ladi. Amaliyotning ko'rsatishicha, yoshlar hamma vaqt ham o'z bilim manbalarini tanqidiy baholay bilmaydilar, ular olimlar izlanishlariga ham, badiiy adabiyotlar materiallariga ham birday ishonadilar. Shu munosabat bilan, dars jarayonida qo'llanilgan hujjatlar mohiyatiga e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi. Hujjatlarga talabalarning yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda turli darajadagi savol va topshiriqlar yuklangan bo'ladi. Bunday yondashuv talabalarda bilimlirni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish bilan birga lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlanishiga ham asos bo'ladi.

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda "Muqobil muhit"dan foydalanish hisoblanadi. "Muqobil" so'zi muallif tomonidan bir yoki bir necha variantdan bittasini tanlash tushuniladi. Ishimizda biz dars jarayonida ikki yo'nalish: birinchisi – lingvaomadaniy munosabatlarda vujudga kelgan muqobil holatni ochib berish; ikkinchisi – lingvistik va lingvodamadniy tadqiqotlarda ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarni turlicha baholanishini tahlil qilib berish.

Model doirasida ta'lif oluvchilarning o'quv-izlanish faoliyatida materialni o'rganish va tizimga keltirish ishi katta mohiyatga ega hisoblanadi. "Muqobil muhit"ni tahlil qilishda professor-o'qituvchining ko'magi kerak bo'ladi, chunki talabalar hamma vaqt ham lingomadaniy va lingvistik tolerantlik tahliliga tayyor emaslar, ular aksariyat hollarda kundalik, odatiy hayotiy darajada baho beradilar, fikr yuritadilar.

XULOSA

So'nggi o'n yilliklarda madaniyat odamlar hayotidagi voqealar, ularning xavfsizligi, munosabatlari va farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynay boshladi. Shu munosabat bilan,

PEDAGOGIKA

hozirgi vaqtida inson shaxsi madaniyatining shakllanishiga yo'naltirilgan ta'lim ideallari o'zgargan: faol, mustaqil, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlangan, ijodiy, tez o'zgaruvchan dunyoda moslasha oladigan, jamiyatda o'zini o'zi anglaydiganshaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berilmoxda. Ijodkorlik, muloqot qilish qobiliyati esa alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Xulosa qilganda, yangi paradigma nuqtai nazaridan pedagogik vazifa bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashning prinsipial yangi modelini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali yuzaga keladi. Uning yangiligi ikkita asosiy tarkibiy qism: ijtimoiy-madaniy va professional, qadriyatlar va texnologiyalarning uyg'un sintezi va ekvivalentligida namayon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007.
2. Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001.
3. Биболетова М.З. Обучение иностранному языку в контексте языкового образования в современной российской школе. – М.: Просвещение, 2013.
4. Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013.
5. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. –М.: Академия, 2007.